

## XIZMATLAR

2022- yilning yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 10 408,6 mlrd. so'mni, shu jumladan qishloq joylarida 3 155,0 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 30,3 foizi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,5 foiz)ni tashkil qildi.


### Bozor xizmatlarining ishlab chiqarishni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>	<i>Yakunga nisbatan, % da</i>	<i>sh.j: qishloq joylarida mlrd. so'm</i>
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>10 408,6</b>	<b>113,5</b>	<b>100,0</b>	<b>3 155,0</b>
<i>sh. j: xizmat turlari bo'yicha</i>				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	493,3	121,8	4,7	5,7
Moliya xizmatlari	1 708,7	137,5	16,4	341,3
Transport xizmatlari	2 460,9	108,5	23,7	1 206,3
<i>sh. j: avtotransport xizmatlari</i>	2 301,6	107,5	22,1	1 194,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	355,4	106,6	3,4	65,7
Savdo xizmatlari	2 892,1	109,0	27,8	994,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	258,7	112,4	2,5	82,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlari	522,9	95,2	5,0	49,7
Sog'liqni saqlash xizmatlari	223,3	120,4	2,2	30,1
Ijara va prokat xizmatlari	305,8	112,4	2,9	60,3
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	312,6	110,1	3,0	93,9
Shaxsiy xizmatlar	460,8	111,3	4,4	155,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	162,4	102,6	1,6	27,6
Boshqa turdagi xizmatlar	251,7	127,7	2,4	42,6

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 27,8 foizi), transport (23,7 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlarda (137,5 foiz), boshqa turdagi xizmatlarda (127,7 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (121,8 foiz) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (120,4 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 27,8 % - eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Shuningdek, transport xizmatlari – 23,7 %, moliyaviy xizmatlar – 16,4 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 5,0 % hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 4,7 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida savdo xizmatlari (508,5 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (472,3 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (323,6 mlrd. so'mga) hamda shaxsiy xizmatlarda (106,1 mlrd. so'mga) o'sish kuzatildi.

## Hududlar kesimida bozor xizmatlari ishlab chiqarishi

	Hajmi			Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>10 408,6</b>	<b>113,5</b>	<b>100,0</b>	<b>2 569,8</b>	<b>111,2</b>
Samarqand sh.	4 528,1	117,4	43,5	8 021,4	115,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	234,7	110,5	2,2	2 542,4	108,7
tumanlar:					
Oqdaryo	360,0	110,3	3,5	2 168,9	107,9
Bulung‘ur	278,4	110,8	2,7	1 432,6	108,5
Jomboy	420,3	110,4	4,0	2 316,8	107,6
Ishtixon	366,5	110,2	3,5	1 380,0	107,7
Kattaqo‘rg‘on	406,1	110,1	3,9	1 432,5	107,9
Qo‘shrabot	203,2	109,8	1,9	1 483,1	107,4
Narpay	340,5	109,9	3,3	1 547,1	107,9
Payariq	365,8	111,0	3,5	1 397,7	108,4
Pastdarg‘om	631,4	110,6	6,1	1 711,1	108,3
Paxtachi	226,1	109,6	2,2	1 524,6	108,2
Samarqand	694,4	112,2	6,7	2 642,4	109,9
Nurobod	205,3	110,0	2,0	1 309,7	107,7
Urgut	701,9	111,9	6,7	1 311,3	109,1
Toyloq	445,9	110,9	4,3	2 106,1	108,0

Hududlar kesimida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Samarqand shahri (117,4 foiz) hamda Samarqand tumani (112,2 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.


Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Samarqand, (8 021,4 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (2 542,4 ming so‘m) va Samarqand (2 642,4 ming so‘m) hamda Jomboy (2 316,8 ming so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulushlari Samarqand shahri (43,5 foiz), Urgut (6,7 foiz), Samarqand (6,7 foiz), Pastdarg‘om (6,1 foiz) hamda Toyloq (4,3 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 569,8 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Samarqand shahrida 8 021,4 ming so'mdan Nurobod tumanida 1 309,7 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

### Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 8 021,4 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Samarqand (109,9 %) hamda Urgut (109,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Urgut (1 311,3 ming so'm), Ishtixon (1 380,0 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, yetarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.